“Oybek ijodining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati” mavzusida respublika ilmiy-nazariy anjuman hamda “Yosh ko‘ngil. Oybek – kecha va bugun” kitobining taqdimoti o‘tkaziladi

O‘zbekiston xalq shoiri Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek tavalludining 120 yilligi munosabati bilan “Oybek ijodining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati” mavzusida respublika ilmiy-nazariy anjuman hamda “Yosh ko‘ngil. Oybek – kecha va bugun” kitobining taqdimoti o‘tkaziladi.

Anjumanda mamlakatimiz va xorijdagi yetuk mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil tadqiqodchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalar o‘z maqola va tezislari bilan ishtirok etishi mumkin.

ILMIY-NAZARIY ANJUMAN ISHINING YO‘NALISHLARI:

1. Oybek adabiy merosi Istiqlol adabiyotshunosligi nigohida;
2. Xorijiy oybekshunoslik;
3. Sho‘ro davri va Istiqlol davri oybekshunosligining nazariy masalalari;
4. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida Oybek lirikasining ahamiyati;
5. Oybek dostonnavis va uning o‘zbek poemachiligida tutgan o‘rni;
6. Oybek – romannavis: uning o‘zbek romanchiligi taraqqiyotidagi ahamiyati;
7. Oybek qissalari, hikoyalarining o‘zbek nasri taraqqiyotidagi o‘rni masalasi;
8. Oybek – adabiyotshunos olim;
9. Oybekning badiiy tarjimachilik faoliyati;
10. Oybek asarlarining xorijiy tillarga tarjimasi;
11. Oybek asarlarining o‘rta va oliy ta’limda o‘qitilish muammolari.